

# Ўзбек адабиётининг тарғиботчиси

Муаллифлар: ф.ф.н проф А.Алимбеков

ф.ф.н доц

**Ж.Шабанов**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Arslon Bayirning hayoti, ijodi va uning o‘zbek-turk adabiy-madaniy aloqalarini mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Muallif Arslon Bayirning she‘riy va nasriy asarlari orqali tabiat, muhabbat, insonparvarlik, tinchlik va adolat mavzularini qanday badiiy talqin etganini yoritadi. Shuningdek, uning O‘zbekiston bilan ijodiy hamkorligi, o‘zbek adiblari asarlarini Turkiyada nashr ettirishi, ikki xalq o‘rtasida madaniy ko‘prik vazifasini bajarayotgani ilmiy-tahliliy asosda ko‘rsatib berilgan. Maqolada adibning “Türkçem seni kim kurtaracak?” asari misolida til masalasiga oid qarashlari ham tahlil qilinib, milliy til sofligini saqlash g‘oyasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Xulosa sifatida Arslon Bayir ijodi nafaqat turk adabiyoti, balki butun turkiy dunyo ma‘naviy boyligining ajralmas qismi ekani asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Arslon Bayir, o‘zbek-turk adabiy aloqalari, turkiy dunyo, madaniy diplomatiya, she‘riyat, muhabbat mavzusi, tabiat tasviri, tinchlik g‘oyasi, til sofligi, milliy qadriyatlar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются жизнь и творчество Арслана Байыра, а также его роль в укреплении узбекско-турецких литературных и культурных связей. Автор освещает художественную интерпретацию тем природы, любви, гуманизма, мира и справедливости в поэтических и прозаических произведениях Арслана Байыра. Также на научно-аналитической основе показано его творческое сотрудничество с Узбекистаном, деятельность по изданию произведений узбекских писателей в Турции и его роль в качестве «культурного моста» между двумя народами. В статье анализируются взгляды писателя на вопросы языка на примере его произведения «Türkçem seni kim kurtaracak?», где особое внимание уделяется идее сохранения чистоты национального языка. В заключении обосновывается, что творчество Арслана Байыра является неотъемлемой частью духовного богатства не только турецкой литературы, но и всего тюркского мира.

**Ключевые слова:** Арслан Байыр, узбекско-турецкие литературные связи, тюркский мир, культурная дипломатия, поэзия, тема любви, описание природы, идея мира, чистота языка, национальные ценности.

**Özet:** Bu makalede Arslan Bayır'ın hayatı, edebi faaliyetleri ve Özbek-Türk edebî ve kültürel ilişkilerinin güçlendirilmesindeki rolü incelenmiştir. Yazar, Arslan Bayır'ın şiir ve nesir eserleri aracılığıyla doğa, aşk, insanlık, barış ve adalet temalarını nasıl sanatsal bir biçimde ele aldığını açıklamaktadır. Ayrıca, Özbekistan ile olan yaratıcı iş birliği, Özbek yazarların eserlerinin Türkiye'de yayımlanmasına katkısı ve iki halk arasında kültürel bir köprü vazifesi görmesi bilimsel-analitik açıdan ortaya konulmuştur. Makalede, yazarın "Türkçem seni kim kurtaracak?" adlı eseri örneğinde dil meselesine ilişkin görüşleri de analiz edilmiş ve millî dilin saflığını koruma fikrine özel önem verilmiştir. Sonuç olarak, Arslan Bayır'ın edebî mirasının yalnızca Türk edebiyatının değil, tüm Türk dünyasının manevi zenginliğinin ayrılmaz bir parçası olduğu temellendirilmiştir.

**Anahtar kelimeler:** Arslan Bayır, Özbek-Türk edebî ilişkileri, Türk dünyası, kültürel diplomasi, şiir, aşk teması, doğa tasviri, barış fikri, dil saflığı, millî değerler.

**Abstract:** This article analyzes the life and literary activity of Arslan Bayır, as well as his role in strengthening Uzbek-Turkish literary and cultural relations. The author explores how Arslan Bayır artistically interprets themes such as nature, love, humanism, peace, and justice through his poetry and prose works. Furthermore, his creative cooperation with Uzbekistan, his contribution to publishing the works of Uzbek writers in Türkiye, and his role as a cultural bridge between the two nations are examined on a scientific and analytical basis. The article also analyzes his views on language issues through the example of his work "*Türkçem seni kim kurtaracak?*", paying special attention to the idea of preserving the purity of the national language. In conclusion, it is substantiated that Arslan Bayır's literary heritage is not only an integral part of Turkish literature but also of the spiritual wealth of the entire Turkic world.

**Keywords:** Arslan Bayir, Uzbek–Turkish literary relations, Turkic world, cultural diplomacy, poetry, theme of love, depiction of nature, idea of peace, language purity, national values.

Tili bir, dili bir, qalbi bir, dini bir xalqlardir o‘zbek va turk xalqi. Ular necha ming yillardir qon-qardosh, do‘st birodar, og‘ir va yengil kunlarda yelkadosh bo‘lishgan. O‘zbekistonda Yunus Emro, Jaloliddin Rumi, Nazim Hikmat, Aziz Nesin, Rashod Nuri Guntekinlar qanchalik sevilib o‘qilsa, Turkiyada Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar shunchalik sevib o‘qiladi. Turk san‘atkorlari Zeki Muren, Ibrohim Tatlis, Emroh, Mustafa Sandal, Sibel Jan, Turkon Shoray, Qodir Inonir, Aydan Shanarlar qanchalik sevilsa, Turkiyada Sherali Jo‘rayev, Ortiq Otajonov, Yulduz Usmonova, Ozoda Nursaidova, Saida Rametova, Tohir Saidov, Javohir Zokirovlar ulardan-da ko‘proq seviladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganida uning mustaqilligini ilk tan olgan davlat Turkiya bo‘ldi. 35 yil davomida ikki davlat orasida yuzlab siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar bo‘yicha shartnomalar imzolandi. 2017-yildan keyin bu aloqalar yangi bosqichga kirdi.

“Turkiya Respublikasi O‘zbekistonning ishonchli va uzoq muddatli strategik sherigi hisoblanadi. Bizni umumiy tarix, til, din va madaniyat birlashtirib turadi.”\*1 Kuni-kecha 29-yanvar 2026-yil hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga tashrifi bu aloqalarni yanada mustahkamladi. Ikki xalq orasida do‘stlik rishtalarini bog‘lashga harakat qiladigan, ko‘prik vazifasini o‘taydigan turk va o‘zbek insonlari juda ko‘p.

Mana shunday insonlardan biri Turkiyaning mashhur shoiri va yozuvchisi, 40 ga yaqin kitobning avtor, bir qancha mukofotlar sohibi, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi (27-noyabr 2025) Arslon Bayir.

Arslon Bayir 1958-yilda Antalya viloyatining Alaniya tumani, Bayir qishlog‘ida tug‘ilgan. Boshlang‘ich maktabni o‘z qishlog‘ida, o‘rta va o‘rta maxsus ta‘limni Alaniya shahrida, ta‘lim institutini esa Denizli shahrida tamomlagan. 1999-yilda Anadolu universiteti turk tili bo‘limi bakalavriat dasturini tugatgan.\*2

Bayir qishlog‘idagi ilk maktabda qo‘liga olgan qalam uni hech qachon tark etmadi. O‘sha qalam uni Denizliga, Anqaraga, nihoyat, butun dunyoning adabiy maydonlariga olib chiqdi. Uning ijodi milliy chegaralardan oshib, turkiy dunyoning umumiy madaniy boyligiga aylanishi hech ham tasodif emas.

“Filiz” she‘riy to‘plami bilan qo‘lga kiritgan birinchi xalqaro mukofot — Qibris (Kipr) she‘riyat mukofoti, uning jahon adabiyotiga qadam qo‘yishining dastlabki belgisi edi.

Arslon Bayirning O‘zbekiston bilan aloqasi naqadar chuqur ekanini, uning asarlarining o‘zbek tilida nashr etilishidan, O‘zbekistonda o‘tkazilgan ko‘plab tadbirlarda faol ishtirok etishidan va nihoyat, O‘zbekiston tomonidan berilgan “Amir Temur” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanishidan bilsa bo‘ladi.

Uning “Yag‘mur ostida (Yomg‘ir ostida)”, “Umur kechar – vaqt kechar (Umr o‘tar — vaqt o‘tar)”, “Otaturk”, “Sessiz sohil (Sassiz sohil)” kabi asarlari o‘zbek tiliga o‘girilgandir. Bu faqat tarjima emas, balki ikki qarindosh madaniyat o‘rtasida yo‘l qurgan qardoshlik rishtasidir.

Uning asarlari 50 dan ortiq tilga tarjima qilingan. She’rlari serb tilida aytilganda boshqa ohang, rus tilida o‘qilganda boshqa ma’no, xitoy tilida ifodalanganda boshqa tus oladi. Bu xilma-xillik uning ijodining asosiy kuchlaridan biridir. Bayir o‘z she’rlarini faqat turk xalqi emas, balki butun insoniyat o‘qishini istaydi.

Qo‘lga kiritgan ko‘plab xalqaro mukofotlar (Rossiyaning “Oltin qalam”i, Qirg‘izistonning “Oltin kaliti”, Qozog‘istonning “Yassaviy” mukofoti, Livan, Xitoy, Italiya mukofotlari) uning jahon miqyosidagi tan olinishining guvohidir. Ammo u uchun mukofot maqsad emas, yo‘lda berilgan rahnamo chirog‘idir. Har bir mukofot yangi mas’uliyat, yangi bosqichdir.

Arslon Bayir san’atni juda yaxshi ko‘radi, ko‘p rasmlar chizadi, rasmlarida ona vatan, tabiat, tog‘lar, bitmas-tuganmas bog‘lar tasvirlangan. Adibning 38 marta o‘tkazgan foto va rasmlar ko‘rgazmalari uning badiiy ifodasining ikkinchi qanotidir. U so‘z bilan aytilmasni rang va chiziq bilan ifodalaydi. Ayniqsa, uch ko‘rinishli Otaturk portretlari bo‘yicha ishlari an’anaviy tasvir san’atiga yangicha yondashuvdir.

Adib Arslon Bayir “Baygench” nashriyotining asoschisi va bosh muharriridir. U ayni vaqtda “Gücel sanat” jurnalining ham bosh muharriridir. Uning asos solgan “Baygench” nashriyoti nafaqat Turkiya, balki O‘zbekiston, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Bolgariya, Serbiya va boshqa ko‘plab mamlakatlar adiblarining asarlarini nashr etadi. Bu nashriyot faqat kitob chop etmaydi, balki xalqlar o‘rtasida madaniy diplomatiya vazifasini o‘taydi.

Arslon Bayir ilmiy tadqiqot ishlarini ham yo‘lga qo‘ygan. Juda ko‘p yosh olimlar, tadqiqotchilarning ishlarini chop etishda ko‘maklashgan. Arslon Bayirning 130 ga yaqin xalqaro konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etishi uning g‘oyalarini dunyoga yetkazish, boshqa madaniyatlar bilan almashish uchun doimiy harakatda ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondan har yili kamida 5 nafar adibni Alaniyadagi simpoziumlarga taklif qilishi esa, uning turkiy dunyo adabiy aloqalarini rivojlantirishdagi shaxsiy hissasidir. Bugungi kungacha adib 87 ta o‘zbek adiblarining asarlarini Turkiyada chop ettirdi.

Bular orasida Nurali Qobul, Farida Afruz, Nargiza Asad kabi adiblar, olimlar va tarjimonlar bor.

Arslon Bayir nafaqat adib, balki rassom, bosh muharrir, madaniyat xodimidir. Uning qalami va kamera obyektini orqali butun dunyo Turkiyani, Turkiya esa butun dunyoni ko‘radi. Uning hayoti va ijodi shuni isbotlaydiki, haqiqiy adib uchun ona yurti faqat Turkiya emas, balki butun dunyodir, ona tili esa barcha insoniyat tilidir. Bayir qishlog‘ida boshlangan kichik bir olov, bugun butun turkiy olamni yoritayotgan nur manbaiga aylangan.

Arslon Bayir she‘rlari o‘zining jozibadorligi bilan ajralib turadi. A. Bayir o‘z she‘rlarida tabiatni, uning go‘zalligini, undagi hodisalarni juda chiroyli tarzda ifodalaydi. Shoirning she‘rlaridan misollar keltiramiz.

Maqolamizda keltirilgan butun she‘rlar shoirning mashhur tarjimon Boboxon Muhammad Sharif tomonidan o‘zbekchalashtirilgan “Ko‘klam mujdasi”<sup>\*3</sup> kitobidan olindi. Shoir o‘zining “Bahor keldi” she‘rida shunday yozadi:

“Bahor keldi” deysan

Kelsa kelaversin.

Bahor ketmaskan bizning boshlardan

U bahor kelganini mujdalab, uning ketmasligini tilaydi. Abadiy qolishini istaydi.

Inson umri ham xuddi bahordek:

Sen borsan qalbimda ochilur gullar

Gullar qo‘ynida yashirin

Bahor bo‘yi ufarar. («Bahor keldi 3-b»)

Bahorda gullar ochilganidek, bahorda inson qalbi ham gullaydi. Qalb yangi nafas bilan ura boshlaydi. Bahorda bulbullar sayragani kabi qalbdagi ham qo‘shiq yangraydi, qalbdagi ishq paydo bo‘ladi, ishq olovlanadi.

Odamsot doimo bahorni intiqib kutadi, tabiatning yangilanishini sog‘inib yashaydi. Chunki bahor kelishi bilan ushalmagan orzular ushaladi, ishlar yurishib ketadi, bahor insonga zavq-u shavq bag‘ishlaydi.

Ko‘klam mujdasi

Yaproqlar so‘lgin bog‘larda

Shoxlar kumush ranglarda

Bahorni sog‘ingan (Ko‘klam mujdasi 19-b)

Shoir Arslan Bayirga ko‘ra bahor nafaqat go‘zallik, yaxshilik va yashovchanlik faslidir. Bahor totlilik, quvnoqlik, xush kayfiyat, yaxshi dam, hordiq va tinim faslidir.

Yalang‘och sohilda bahorning

O‘tirdik totli bog‘ida qirning (Sel 18-b)

Shoirni o‘z yurtining go‘zal va yam-yashil bog‘lari kabi, viqorli, oppoq qorli tog‘lari ham hayratga soladi. U she‘rlarida tog‘larni o‘zgacha bir mehr bilan ta‘riflaydi.

Qorli tog‘lar boshida

Yo‘l bermas

Uchirimli so‘qmoqlar (Tog‘lar 25-b)

Shoirlarga ko‘ra go‘yoki baland, g‘ururli, viqorli tog‘lar past, uzun va tor so‘qmoqlarga yo‘l bermayotgandek.

Tumanli tog‘lardan esgan

Sovuq shamol urilar yuzga (Oqshomdan tonggacha 23-b)

Tog‘lardan esayotgan shamol insonga huzur-halovat, yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi. Yuzlarini tiniqlashtiradi, uyqudan uyg‘otadi, insonni tetiklashtiradi.

Shoir she‘rlarida kuz fasli ham o‘zgacha bir tarovat bilan tasvirlanadi. Kuz insonga o‘zining go‘zalligi, nafisligi bilan charchoqlarini unuttiradi, unga kuch-quvvat beradi, dardlaridan forig‘ qiladi.

Kech kuzning bir kuni

Unutarman butun dardlarni

Orqaga otib

Yurarman qo‘llarim kissada (Yomg‘ir ostida bo‘kaman 5-b)

Tabiat hodisalari shoirning diqqatini tortadi, uni o‘ylantiradi, xayollarga toldiradi.

Yog‘ayotgan yomg‘ir, esayotgan shamol unga huzun beradi. Ishonchlarini, quvonchlarini olib ketadi.

Tashqarida yomg‘ir yog‘moqda

Soat 22ga urdi zaang

Havo sovuq sovqotaman

Shimol shamoli esmoqda

Quvonchlarim emas bu (Qoldimi 13-b)

Shoir o‘z she‘rlarida tabiatni asrashga, uning qadriga yetishga undaydi. Uni qo‘riqlashga chaqiradi. Tabiat boyliklaridan unumli foydalanishimiz kerakligini eslatadi. Tabiat bizning bitmas-tuganmas boyligimizdir, deydi.

Sel yog‘di ortidan

Yeru ko‘kni bosdi to‘fon

Dunyoning holi tang

Qurigan dudoqlari

Bir qultum suv istar

Yerning yoriqlari (Yomg‘irdan keyingi tuproq 26-b)

Yerimizni qadrlashimiz, suvlardan unumli foydalanishimiz, kelajak avlodlarimizga tabiatni butunlay go‘zalligi bilan yetkazishimiz kerak, deydi. Biz qanchalik tabiat go‘zalligiga oshifta bo‘lsak, bizning nasiralarimiz bizdan hamda kuchliroq tabiatga shaydo bo‘lishlari kerak. Zero, tabiat bizga Yaratganning eng buyuk ne‘matidir.

Qadim-qadimdan ishq-muhabbat, sevgi mavzusi butun shoirlarning ijodidan joy olgan. Arslan Bayir ham bundan mustasno emas. U o‘zining “Sevgi otashida o‘tgan umr” she‘risida shunday yozadi:

Qo‘llarimdan  
Sevgi qushin uchirdim  
Holbuki, ketarkan  
O‘zgarishimni istading  
Hamon sen qalbim to‘rida  
Turfa gullar ichida  
Yomon ko‘zlardan uzoq  
Sochlaringni silasam.

(Sevgi otashida o‘tgan umr 36-b)

Shoirlar ko‘ra ishq-muhabbat odamni butunlay o‘zgartiradi. Unga zavq beradi, qo‘shiq kuylatadi. U o‘ziga atrofga butunlay boshqa nazar bilan qaraydigan bo‘ladi. U sevgilisiga intiladi, unga talpinadi. U bilan yaqin va inoq bo‘lishga harakat qiladi. Inson sevgilisini sog‘inadi, damba-dam uni qumsaydi.

Kipriging bo‘lsin mizrob  
Dudoqlaringda tabassum  
Bo‘sa sog‘inchi (Sevgi 17-b)  
Sevgi insonga baxt-saodat, iliqlik, tabassum bag‘ishlaydi. Shoir sevgining abadiyligiga, sevishtanlarning baxtiyor bo‘lishiga ishonadi.

Gulim, umidim  
Har bir butoqda  
Tabassumlar balqajak  
Ertaga yonoqlarida (**Ko‘klam mujdasi 19-b**)  
Yonoqlarda tabassumning balqishi — u sevishtanlarning visolga yetimog‘i demakdir. Bu yangi oila, yangi hayot demakdir. Ishq-muhabbat bu xayol yoki tush emas. Bu kelajak. Bu go‘zal hayot. Faqat shirin vaqtida tushdan uyg‘onish kerak. Ana o‘shanda sen sen yolg‘iz emasligingni, seni kutuvchi, seni sevuvchi inson borligini sezasan. Unga intilasan, unga talpinasan.

Yoz bog‘ida maysa shabnami  
Dudoqlar va so‘lgin yuzimga tushsa  
O‘sha zahot uyg‘onsam  
Tush bog‘chasidan  
Shunda sensizlik bilinmas  
Chunki sen borsan  
Ho‘rsiniqlarimda... (Tushlarim 17-b)  
Inson sevgisini va sevgilisini bosh toji qilmog‘i kerak, uning qadriga yetmog‘i kerak. O‘shandagina sen sensiz emasligingni bilasan, chuqur ho‘rsinish o‘rniga rohat nafas olasan.

Qo‘ymasang sevgini  
Bosh ustiga  
Sof sevgidan

Mahrum yesang

Bo'lishmasang nafasni

Iliq iliq

Sen u zamon

Ovozingni o'chir o'chirrrr... (Hasrat dengizi 15-b)

Shoir ijodida bunday misralar bisyor. Uning ijodi bilan qiziqib tanishsangiz, bunga o'zingiz iqrora bo'lasiz.

21-asr alg'ov-dalg'ov zamoni. Dunyoda sodir bo'layotgan voqealar shoir Arslan Bayirga qattiq ta'sir qiladi. U bo'layotgan hodisalarga befarq qaray olmaydi, o'z munosabatini bildiradi.

Shafqatsiz adolatsiz dunyo

Yerurmi bolalar qismati (Yurak yog'dusiga 42-b)

Nahotki kelajak qorog'u, adolatsiz, zulmat bir dunyo bo'ladi. Bizning avlodlarimiz unda qanday yashaydi? Bo'layotgan nohaqliklar, adolatsizliklarga, qo'rquv va tahlikalarga "Kim javob beradi?" deydi shoir.

Bu afg'on qizi uchun

Kim hisob beradi?

Ona ko'kragida qotgan qon

Ko'zyoshlarin emgan qiz uchun

Kimlar hisob beradi? (Kim javob beradi)

Urushlar. Notinchlik. Bombalar portlashi. Yer talash, maydon talash. Minglab urush qurbonlari. Insoniyatga nima bo'ldi? Bizlar yoshi kattalar, balki bunga chidarmiz. Lekin godaklar, bolalar, ularchi?

Tong otarkan dahshat-la uyg'onar

Moviy ko'z, qora ko'z, yashilu

Malla ko'z bolalar

Moviy ko'kda ko'tarsa

Quyosh boshin yostiqlan

Bag'dod yonar ofat olovdan

Ko'kni bosgan tutunlar

Chiqqargan mash'um bombalar

Tugab bitdi sabrlar (Bolalar uchun chalinsin qo'ng'iroq 20-b)

Garchi shoir o'z she'rda "Sabr qolmadi. Kuch tugadi. Bombalar portlashi insonlarni qo'rqitmoqda" desada, u kelajakka umid qiladi. Go'zal, porloq va nurli hayot hali oldinda ekaniga ishonadi.

Bilaman

Yo'qolajak

Bir kuni butunlay

Qabohatlar dunyodan (Sevgi otashida o'tgan umr 36-b)

Shoir qahhoqatlar, zulm, adolatsizliklar yo'qolishini, yer yuzida tinchlik bo'lishini, yosh godaklar-bolalar shod-xurramlikda yashashini, qorog'ulik o'rni nurli olam bo'lishini baralla kuylaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Arslan Bayir nafaqat shoir, balki yaxshi yozuvchi, qalami o'tkir publitsist hamdir. U "Turk tilim! Seni kim qutqaradi" ilmiy tadqiqot kitobida bugungi kunda turk tili imlo qoidalariga e'tibor berilmayotganligini, tilning kundun-kun o'z latofatini yo'qotib borayotganligini va bularning hamasiga ommaviy axborot vositalari sababchi bo'layotganligiga e'tibor qaratdi.

U o'zining 2001 yilda chop etilgan "Turk tilim! Seni kim qutqaradi" asarida shunday yozadi:

"Ziyo Go'kalpga quloq solmog'imiz kerak. Axir turk tilda yetarlicha so'zlar va ularning ma'nosi bor deganku. Bas, shunday ekan, to'g'ri, turk tilida muqobili bor so'zlar o'rniga nega yog'liq so'zlar ishlatiladi?" — deydi Arslan Bayir va misollar keltiradi.

<b>To'g'ri so'zlar</b>	<b>Noto'g'ri so'zlar</b>	<b>O'zbekcha tarjimai</b>
Vekiller heyeti - bakanlar kurulu	Kabine	Vazirlar Mahkamasi
Mebus - milletvekili	Parlamentar	Millat vakili / deputat
Basın yayın	Media (Medya)	Matbuot va axborot vositalari
Kanuni - hukuki - yasal	Legal	Qonuniy
Usul - yöntem	Metot	Usul / uslub
Seçenek	Alternatif	Tanlov / variant

"Turk tilim! Seni kim qutqaradi" (114-115 b)\*4

Arslan Bayir yozadi: "Til rivojlanadi. Zamon zulay yangi so'zlar paydo bo'ladi, ayniqsa internet, sun'iy intellektning rivojlanishi yangi terminlarni keltirib chiqaradi. Ularning ko'pchiligining turk tilida muqobili bor. Lekin biz hanuz turkcha so'zlardan ko'ra ko'proq chetdan kelgan so'zlarni ishlatamiz". \*5

Arslan Bayir o'z asarida turk tilidagi muqobili bo'lgan 100 ga yaqin so'zlarni misol keltiradi. Biz bu maqolada bir qanchasini keltirdik.

<b>Inglizcha / Turkiycha</b>	<b>Turkiycha</b>	<b>O'zbekcha</b>
Primer	Birinci	Birinchi(bosh)
Database	Veritabanı	Ma'lumotlar bazasi
Radyasyon	Işınım Sıklık	Nurlanish
Frekans	Sıklık	Tezlik / Chastota
Konsantrasyon	Derişim	Konsentratsiya
Solüsyon	Çözelti	Eritma
Reaksiyon	Tepkime	Reaksiya
Impuls	Uyarı	Impuls/ bosim

**Inglizcha / Turkiycha**

Dominant

**Turkiycha**

Baskın

**O‘zbekcha**

Dominant / ustun

“Turk tilim! Seni kim qutqaradi” (154-155 b)\*6

Yozuvchi va shoir Arslan Bayir: “Yuqorida keltirilgan misollar orqali biz o‘z til boyligimizni saqlab qola olamiz. Yoshlarga biz namuna bo‘lishimiz kerak, tilimizning sofligi har birimizga bog‘liqdir, shunga kurashaylik” – deydi. Va biz albatta uning fikrlariga qo‘shilamiz.\*7

Arslan Bayir o‘z asarlari va qilayotgan sa’y-harakatlari bilan o‘zbek va turk xalqlari o‘rtasidagi do‘stlikning yuksalishiga katta hissa qo‘shmoqda. O‘zbek xalqining buyuk ijodkorlari asarlarini turk xalqiga tanitmoqda.

«Mening O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a‘zo qilib olinishim mening o‘zbek xalqiga bo‘lgan mehrimni oshiradi, menga katta mas’uliyat yuklaydi. Men o‘z ishlarim bilan menga bo‘lgan bu ishonchni oqlayman. Umrimning oxirigacha ikki xalq orasidagi do‘stlikning abadiy bo‘lishiga xizmat qilaman», — deydi Arslan Bayir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilgi Anqaradagi tashrif nutqi.
2. “Sessız sohil” — Arslan Bayir (tarjima — Jumali Shabanov)
3. “Ko‘klam mujdasi” — Arslan Bayir (tarjima: Boboxon Muhammad Sharif).
4. “Türkçem seni kim kurtaracak?” (114-115 b) — Arslan Bayir.
5. “Türkçem seni kim kurtaracak?” (154-155 b) — Arslan Bayir.
6. “Türkçem seni kim kurtaracak?” (154-155 b) — Arslan Bayir.
7. “Mavinin ıđlıđı” — Arslan Bayir.

